



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|----------------|--|
| 1. | B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. | Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. | G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. | X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. | U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. | D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. | G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. | Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. | Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. | N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. | M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. | S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILY QO'MITASI

- | | | |
|-----|-----------------|---|
| 1. | M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. | M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. | U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. | F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. | L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. | M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. | Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. | M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. | M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. | F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. | N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. | M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

I SHO'BA. ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA AMALIYOTI MASALALARI

O'ZBEK TILI TA'LIMIY KORPUSI TUZILISHI VA IMKONIYATLARI

Usmonova Mohinur Ulug'bek qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi,
BuxDU O'zbek tilshunosligi va
jurnalistika kafedrasida mustaqil izlanuvchisi
e-mail: mohinurusmonova872@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbek tili ta'limiy korpusi tushunchasi, uning shakllanish jarayoni, tarkibiy qismlari, amaliy ahamiyati hamda hozirgi holati tahlil qilinadi. Shuningdek, korpusning o'zbek tili ta'limi va til texnologiyalari rivojida ahamiyati izohlanadi.

Kalit so'zlar: korpus lingvistikasi, kompyuter lingvistikasi, korpus, ta'limiy korpus, mualliflik korpusi, matnlarni qayta ishlash.

Korpus lingvistikasi bugungi kunda o'zbek tili uchun ham dolzarb yo'nalishga aylangan. O'zbekiston Respublikasida yaratilayotgan "O'zbek tili milliy korpusi" loyihasi doirasida ta'limiy korpus alohida yo'nalish sifatida shakllantirilmoqda. Ushbu korpus o'zbek tilini o'qitish, o'rganish va tadqiq etish jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Tilni o'qitish jarayonida korpusdan foydalanish chet tillari sifatida o'zbek tilini o'rganuvchilar uchun lug'at, grammatika va tildan foydalanishda samarali vosita bo'lishi mumkin. Korpusga asoslangan holda tilni o'qitish bir qancha qulayliklar yaratadi.

Ta'limiy korpus – maktab darsliklari va o'quv lug'atlariga asoslangan til korpusi bo'lib, o'zbek tili Milliy korpusining xususiy (tarkibiy) turi hisoblanadi. O'zbek tilining ta'limiy korpusi AM-FZ- 201908172 raqamli "O'zbek tili ta'limiy korpusini yaratish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida yaratildi, 2021-yilning 23-aprelida dastlabki taqdimoti o'tkazildi, hozirda uning bazasi boyitilmoqda va takomillashtirilmoqda. Mazkur korpus Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida L.Raupova rahbarligidagi loyihaning amaliy natijasi hisoblanadi. Loyiha B.Mengliyev, B.Elov, R.Alayev, Sh.Hamroyeva, M.Abjalova va boshqa oliy ta'lim muassasalari, jumladan, TerDU, QarDU, BuxDU professor-o'qituvchilari yordamida bajarilgan.

Ma'lumki, til korpuslari til ta'limi – lingvodidaktika, lug'atlarni yaratish, diaxron va sinxron aspektida o'rganish, nutqiy kompetensiyani rivojlantirish, so'z boyligini oshirish, gap modellarini shakllantirishda o'ta muhim ish quroli hisoblanadi. Ta'limiy korpusning yaratishi esa ona tilini va uni xorijiy til sifatida o'rganilishida benazir texnologik o'quv quroli hisoblanadi. Shu bois o'zbek tilining ta'limiy korpusi "O'zbek tili Milliy korpusini yaratish konsepsiyasi"ning ilk yirik bosqichi hisoblanadi.

Ta'limiy korpus integrallashgan veb-dastur tarzda shakllantirilib, foydalanuvchilarga faoliyatlarini samarali amalga oshirish uchun o'quv yurtining taqsimlangan axborot tizimiga murojaat qilish va ulardan foydalanish imkonini beradi. Mazkur korpus korpus interfeysi, qidiruv tizimi va lug'atlar ruknidan iborat. "Lug'atlar" ruknida izohli lug'at, omonim, sinonim, paronim va antonim so'zlar lug'atlari leksikografik resurs sifatida joylangan. O'zbek tili ta'limiy korpusi saytining birinchi sahifasida korpus va uning tuzuvchilari haqida asosiy ma'lumot, o'ng tomondagi menyuda istalgan sahifaga o'tish imkoniyati mavjud.

Korpus bo'yicha qidiruv foydalanuvchiga quyidagilarni aniqlash imkonini beradi:

- 1) muayyan so'zning barcha shakllarini misollar massivi bilan aniqlash;
- 2) misollarning manbasini aniqlash;
- 3) manba haqida ma'lumot olish;
- 4) so'zning izohi bilan tanishish;
- 5) so'zning morfologik tahlili, bo'g'inlarga ajralishini o'rganish va uning talaffuzini tinglab bilish;

- 6) qidiruvga berilgan soʻz bilan uning oʻng va chap tomonidan birikish imkoniyatiga ega soʻzlar roʻyxatini olish (N-gramma texnologiyasi);
- 7) soʻzning foydalanish chastotasi yoki statistikasini bilish;
- 8) soʻzning shakl va maʼno munosabatlarini aniqlash (omonim, paronim, antonim, sinonim shakllari).

Taʼlimiy korpus hajmi. Ayni damda oʻzbek tili taʼlimiy korpusi lingvistik maʼlumotlari hajmi quyidagi koʻrsatkichga ega:

№	Baza birligining nomi	soni
1	kitoblar	184
2	Internet matnlari	4 78 908
3	soʻz turkumlari teglangan soʻzlar	36 897
4	gaplar	5 600 015
5	kontekstlar	5 562 202
6	izohlangan soʻzlar soni	4575
7	iboralar	1384
8	soʻzlarning darajalanish qatori	413
9	sinonim soʻzlar	993
10	antonim soʻzlar	870
11	paronim juftliklar	558
12	omonimlar	1636
13	“Ona tili qomusiy lugʻati”dagi tushunchalar	1636

Bir necha yillar davomida olib borilgan tadqiqotlar va 2020-2021-yillardagi amaliy saʼy-harakatlar natijasida Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti Kompyuter lingvistikasi va raqamli texnologiyalar hamda Amaliy tilshunoslik va lingvodidaktika kafedralari hamkorligida AM-FZ-201908172 raqamli “Oʻzbek tilining taʼlimiy korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida Oʻzbek tilining taʼlimiy korpusi yaratildi. Bugungi kunda mazkur korpusda

- 1) mosfoanalizator (avtomatik morfologik tahlil);
- 2) soʻz(shakl)ni boʻgʻinlarga ajratish;
- 4) izoh (lar)ini taqdim etish;
- 5) antonimlarini koʻrsatish;
- 6) sinonimizator (qidiruvga yozilgan soʻzga uning maʼnodoshlarini taqdim etish dasturi);
- 7) omonimshakllarni taqdim etish;
- 8) soʻzning talaffuzdosh (paronim)ini uning izohi bilan berish;
- 9) qidiruvga berilgan soʻz bilan bogʻliq “Ona tili qomusiy lugʻati”dan maʼlumotlarni taqdim etish;
- 10) qidiruvga berilgan soʻz qatnashgan iboralarni koʻrsatish;
- 11) uning turli xususiyatlari boʻyicha darajalanish qatorini namoyish etish imkoniyatlari mavjud.

Oʻzbek tili taʼlimiy korpusi milliy tilni rivojlantirish, uni raqamli muhitga moslashtirish va oʻqitish sifatini oshirishda muhim oʻrin tutadi. Kelgusida bu korpusni yanada boyitish, interaktiv platformalarga integratsiya qilish va xalqaro korpuslar bilan uygʻunlashtirish zarur. Shu tarzda oʻzbek tili raqamli tilshunoslikning toʻlaqonli ishtirokchisiga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonova N. Korpus lingvistikasi (darslik). – Toshkent: Globeedit, 2023. –357 b.
2. Abjalova M. Korpus lingvistikasi (uslubiy qoʻllanma). Toshkent: Bookmany print, 2010.
3. Хамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари. Монография. – Германия: GlobeEdit, 2020. – 250 б. 22. – 105 б.

4. O'zbek tili milliy korpusi – muhim madaniy voqelik (davra suhbat) / “Ma’rifat”,
11.08.2021. № 32.